


AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) bilan istiqbolli hamkorlik rejalari muhokama qilindi





Bugun Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning O'zbekistondagi missiyasi iqtisodiy rivojlanish bo'limi boshlig'i Skott Xedland boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Ma'lumki, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi mamlakatimizda keng ko'lamli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarini yanada qo'llab-quvvatlash bilan birga xususiy biznes, nodavlat tashkilotlar va mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatini kuchaytirishiga hissa qo'shib kelmoqda.



USAID fondi bilan hamkorlikda Toshkent davlat agrar universitetining Termiz filialida qishloq xo'jaligida qiymat zanjiri loyihasi doirasida meva-sabzavotlarni saqlashga mo'ljallangan sovuqxona (o'quv maqsadlarida) qurildi. Hozirda vakolatxona ko'magida "Termiz" erkin iqtisodiy zonasi uchun marketing va biznes rejalar ishlab chiqilmoqda. Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazida 3 oylik dasturlash kurslarini tashkil etish rejalashtirilgan.



Samimiy muloqot chog'ida USAIDning "Tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish" (FGI), "Raqobatbardoshlik, savdo va ish o'rinlari" (CTJ) hamda "Qishloq xo'jaligida qiymat zanjirini rivojlantirish" (AVC) loyihalari doirasida hamkorlik rejalari muhokama qilindi.

Ularga Termiz tumanidagi Ayritom mahallasi hududida barpo etilayotgan “Termiz” erkin iqtisodiy zonasi va “Termiz” xalqaro savdo markazida yaratilayotgan zamonaviy sharoit va qulayliklar to'g'risida taqdimoti qilindi. Ularni qiziqtirgan savollarga javob berildi.



Mehmonlarning viloyatimizga ikki kunlik safari davomida TDAU Termiz filiali, “Termiz” erkin iqtisodiy zonasi, Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi, shuningdek, qator tarixiy qadamjolar va muzeylarga tashriflari ko'zda tutilgan.